

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.20.03 RAQAMLI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BEKTURGANOVA ZULFIYA KAZIEVNA

**MUAMMOLI O‘QITISHDA KIMYO VA BIOLOGIYA O‘RTASIDAGI
FANLARARO ALOQALARNI AMALGA OSHIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH
(QORAQALPOG‘ISTON MAKTABLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Bekturganova Zulfiya Kazievna

Muammoli o‘qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirishni takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston maktablari misolida)..... 3

Бектурганова Зульфия Казиевна

Совершенствование реализации межпредметных связей химии и биологии в проблемном обучении (на примере школ Каракалпакстана) 23

Bekturganova Zulfiya Kazievna

Improving the implementation of intersubject connections between chemistry and biology in problem-based learning (on the example of schools in Karakalpakstan)”..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 49

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.20.03 RAQAMLI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BEKTURGANOVA ZULFIYA KAZIEVNA

**MUAMMOLI O‘QITISHDA KIMYO VA BIOLOGIYA O‘RTASIDAGI
FANLARARO ALOQALARNI AMALGA OSHIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH
(QORAQALPOG‘ISTON MAKTABLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PHD/Ped4994 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Kaypbergenov Atabek Tulepbergenovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abilova Gulbaxar Jlgachaevna
pedagogika fanlari doktori, dotsent
Janibekov Abdulaziz Adilxanovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta ilmiy xodim


Etakshi tashkilot:

Urganch Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.30.12.2019.T.20.03 raqamli bir martalik ilmiy kengashning «12» avgust 2025 yil soat 10⁰⁰da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi. 1. Tel: (+99861) 223-60-47; faks: (+99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 341 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi. 1. Tel: (+99861) 223-60-47; faks: (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «22» iyul kuni tarqatildi.
(2025 yil «23» iyuldagi 6-raqamli restr baynnomasi).



KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon taraqqiyotida ta'lim tizimidagi eng dolzarb muammolarni hal etishda hamkorlik, integratsiya va sa'y-harakatlarni birlashtirish bilan tavsiflanadi. Ushbu tendentsiyalar tobora kengayib borayotgan bilim sohasini qamrab oluvchi va bugungi maktab o'quvchilari faoliyat ko'rsatishi kerak bo'lgan muhitni shakllantirmoqda. Bunda hozirgi vaqtda o'quv fanlari o'rtasidagi hamkorlik muhitida o'zining ulkan tasviriy imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quv jarayonining deyarli barcha elementlariga, maktablar uchun fanlararo aloqalar orqali o'qitish kiritilmoqda. 2030 yilgacha mo'ljallangan YUNESKONing Inchxon deklaratsiyasida «Ta'lim taraqqiyotning asosiy harakatlanuvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muxim faoliyat», deb qayd etilgan hamda belgilangan vazifalar doirasida yangi ta'lim taraqqiyotiga, kuchli va innovatsion xarakterlarga, shuningdek, ta'lim tizimini doimiy rivojlantirib borishga doir amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoning barcha rivojlangan davlatlarida ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanin o'qitishda zamonaviy STEAM ta'limi elementlarin qo'llash va kimyo fanin boshqa tabiiy biologiya, fizika, geografiya fanlari bilan bog'liqlikda o'qitish orqali rivojlantirish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish, hayotiy jarayonlarni kimyoviy qonuniyatlar orqali tadqiq qilish, umumiy kimyoviy tushunchalarni ilmiy bilishning asosi sifatida shakllantirish, ta'lim mazmuniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etib, mazkur sohada innovatsion yondashuvga asoslangan tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qilmoqda. Xalqaro integratsiya va globallashtirish har bir davlatning rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi va ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda mamlakatlar o'rtasidagi raqobat raqobatbardosh inson resurslarini talab qiladi.

Mamlakatimizda 11 yillik ta'limga o'tish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta'lim tizimin isloh qilish, maktablarda darslarni sifatli tarzda tashkil etish orqali ta'lim tizimin takomillashtirishga erishish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son Qarorida alohida ta'kidlanganidek, «Kimyo va biologiya fanlari bo'yicha chuqur o'qitish, hududlarda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, tog'-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi. Natijada, xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi¹».

Hozirgi kunda kimyo va biologiya yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida «Uzluksiz ta'lim tizim mazmunini sifat jihatidan yangilash, fanlararo aloqalar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805-son qarori.

orqali o'qitishda innovatsion texnologiyalarni tizimli ravishda qo'llanishga erishish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'un holda o'zlashtirish, dars jarayonida o'quvchilarning barcha qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan zaruriy shart-sharoitlarni yaratish» vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan farmonlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kimyo o'qitish metodikasi sohasida o'zbek olimlari tomonidan kimyo fanida ijodiy bilish faoliyatini shakllantirish hamda kimyo darslarida o'quvchi va talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha M.B.Ajiyeva, R.Sh.Berdiqulov; A.Mamajonov, Sh.M.Mirkomilov, M.Nishanov, H.T.Omonov, N.G.Raxmatullaev, M.Umarov, J.Fayozov, kimyo o'qitishda axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha F.A.Alimova, N.A.Anvarova, B.M.Dumanov, E.U.Eshchanov, L.T.Zaylobov, N.I.Kamolova, G.X.Kadirova, S.A.Movlonova, I.E.Shernazarov, Sh.X.Shomurotova, Sh.R.Saydaxmetova, Sh.B.Formonova va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Ularning tadqiqot ishlarida o'qitish metodikasining didaktik tamoyillari, ta'lim jarayonini axborotlashtirish va testlardan foydalanish barcha darajadagi ta'lim mazmunini takomillashtirishda alohida ahamiyatga ega bo'lib, fan asoslarini o'rganish, butun o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

Ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha A.A. Abduqodirov, Z.X. Abdinazarova, A.S. Abraxmanova, U.N. Abdiev, A.R. Aripdjanova, A.Yu. Bakirova, M. Djoraev, G.M. Ergasheva, G.S. Ergasheva, G.N. Ibragimova, Yu. G`. Maxmudov, N.A. Muslimov, J. Usarov, G.A. Umarova, U.E. Raxmatov, B.S. Sadullaeva, J.O. Tolipova, E. Xujanov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan A.P.Belyaeva, G.I.Baturina, Vasileva P.D, L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, I.D.Zverev, O.S.Zaytseva, Ya.A.Komenskiy, Kosobaeva B, A.A.Kuznetsova, N.E.Kuznetsova, M.V.Lomonosov, O.S.Lebedev, M.I.Maxmutov, V.N.Maksimova, A.M.Matyushkina, D.I.Mendelev, E.E.Minchenkov, M.S.Pak, M.N.Skatkin, V.A.Slastenin, I.N.Sechenov, I.P.Yakovlev, M.A.Shatalov, A.V.Xutorskiy va boshqalarning tadqiqot ishlarida ta'lim tizimida texnik vositalarni qo'llashga oid ilmiy-ijodiy yondashuvlar o'z ifodasini topgan. Raymond Chang, Jason Overby,

P.W. Atkins, M.G. Dairy, J. Dyui kabi xorijlik olimlar kimyo ta'lim mazmunini takomillashtirish masalalari bilan shug'ullangan.

Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi fanlararo aloqalar orqali rivojlantirish masalasi alohida ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Nukus davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot rejasining 2019-2022 yillarda mo'ljallangan "Uzluksiz ta'lim tizimida foydalanishga mo'ljallangan innovatsion dasturiy ta'lim vositalarin ishlab chiqish" ilmiy tadqiqot rejasi yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Muammoli o'qitishda kimyo va biologiya ortasidagi fanlararo aloqalar orqali o'quvchilarning bilim olish ko'nikmalarin takomillashtirish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida muammoli o'qitish texnologiyasini tatbiq etish jarayonida o'quvchilarda kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi ichki mantiqiy va mazmuniy bog'liqlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik-psixologik hamda metodik yondashuvlarning ilmiy asoslarini chuqur o'rganish va tahlil qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida muammoli o'qitish metodikasini tatbiq etishda kimyo va biologiya fanlarining integratsiyalashgan o'qitish uslublarini aniqlash, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning uslubiy asoslari va mexanizmlarini chuqur o'rganish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida nazariy va amaliy darslarning mazmunin boyitish hamda o'quvchilarning bilim olish jarayoni va o'qituvchi faoliyatining samaradorligin oshirish maqsadida muammoli o'qitish asosida kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirish metodikasin ishlab chiqish va o'quv jarayonini texnologiyalashtirish orqali takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslarin yaratish;

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan muammoli o'qitish yondashuviga asoslangan fanlararo integratsiyalashgan dars materiallari (didaktik vositalar, topshiriqlar, sinf faoliyat ssenariylari) o'quvchilarda kimyoviy va biologik tushunchalarning o'zaro bog'liqligini anglash, tahliliy fikrlash va amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan holda eksperimental sinovdan o'tkazish va eksperiment natijalari asosida metodik tavsiyalarning o'quv jarayoniga ijobiy ta'siri ilmiy asoslangan usullar yordamida aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga muammoli vaziyatlar orqali kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi fanlararo aloqalarni amalga oshirishga yonaltirilgan o'qitish metodikasin takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri hamda Chimboy, Muynoq, Xodjayli, Qung'irot, Amudaryo, Bozatov va Nukus tumanlaridagi maktablarda tashkil etilib ularga jami 352 nafar respondent- o'quvchlari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini umumiy oʻrta taʼlim maktablari oʻquvchilarida muammoli oʻqitishda kimyo va biologiya oʻrtasidagi fanlararo aloqalar amalga oshirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari: tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, tizimli va kontekstual tahlil usullari, diagnostik usullar (pedagogik kuzatuv, suxbat, anketa, surovnomma), ijtimoiy tadqiqot usullari (suxbat, kuzatish, intervyu, test, ekspert baholash, mustahil baholash natijalarini umumlashtirish) hamda pedagogik tajriba-sinov usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida muammoli oʻqitish yondashuvi asosida kimyo va biologiya fanlari oʻrtasidagi fanlararo aloqalarni amalga oshirishga qaratilgan metodologik asoslar ishlab chiqilgan, “Kimyo fanining asosiy tushunchalari, qonunlari, elementlar davriy jadvali, moddalar va kimyoviy reaksiyalar” kabi mavzular doirasida oʻquvchilarning chuqur tahliliy tafakkurini shakllantirish, tanqidiy yondashuvni rivojlantirish hamda umumintellektual kompetensiyalarni egallashiga xizmat qiluvchi integrativ-didaktik tizim asoslangan holda metodologiyaning strukturaviy-modulli tarkibi va ilmiy asoslari aniqlashtirilgan;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi umumtaʼlim maktablarida kimyo va biologiya fanlari oʻrtasida fanlararo uzviy bogʻliqlikni taʼminlovchi shart-sharoitlar, oʻqitish vositalari va metodik yondashuvlar asosida muammoli-integrativ klaster modelin ishlab chiqish orqali oʻquvchilarning kognitiv faolligi, divergent tafakkuri va ijodiy-analitik kompetensiyalari takomillashtirilgan;

kimyo va biologiya fanlarining uzviy integratsiyasi asosida muammoli oʻqitish yondashuvining funksional mexanizmlari ishlab chiqish orqali oʻquvchilarda izlanish koʻnikmalari, mustaqil fikrlash, tanqidiy va innovatsion yondashuv asosidagi faoliyat turlarini shakllantirish imkonini beruvchi oʻquv jarayoni modellashtirilib, SCIENCE va STEAM konsepsiyalarining asosiy komponentlari - loyiha asosida taʼlim, eksperiment, vizualizatsiya va kommunikatsion hamkorlik elementlari integratsiyasi takomillashtirilgan;

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun kimyo va biologiya fanlari oʻrtasida yuzaga keladigan fanlararo bogʻliqlikni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muammoli oʻquv vaziyatlarini yaratish texnologiyasi asosida oʻquvchilarning intellektual, kognitiv va ijodiy faoliyatini baholash imkonini beruvchi mezonlar ishlab chiqildi va tajriba-sinov darslari asosida metodik tizim empirik jihatdan takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpogʻiston Respublikasi umumiy oʻrta taʼlim maktablarida muammoli oʻqitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalar orqali oʻqitishni takomillashtirish uchun “Anorganikaliq ximiya” nomli darsligimizda yaratilgan maʼlumotlar asosida 8-9 sinflarga tegishli kimyo fani darsligi “metallar, metalmaslar, biogen elementlar va ularning tirik organizimdagi ahamiyati, atmosfera va gidrosferani muhofaza qilish, murakkab efirlar, uglevodlar, beloklar” mavzulari mazmuniga singdirilib takomillashtirilgan;

umumiy orta ta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasin takomillashtirish, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilim olishga degan motivatsiyasin, bilish ko'nikmalarin rivojlantirish uchun "Ximiyanı oqıtıw metodıkası" nomli oquv qollanma yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi muammoli o'qitish orqali o'quvchilarning nazariy va amaliy ko'nikmalari, o'qitishning falsafiy, psixologik-pedagogik, ilmiy, metodologiya tushunchalari ishlab shiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan yondoshuv va metodikalarning ilmiylik darajasi, foydalanilgan nazariy va amaliy rasmiy manbalarning ishonchliligi, keltirilgan tahlillar va o'tkazilgan pedagogik tajribasinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida asoslangani, ishlab shiqilgan metodika, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida muammoli o'qitish jarayonida kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi fanlararo aloqalarni samarali tashkil etishning shart-sharoitlari va pedagogik xususiyatlarini aniqlanganligi, muammoli o'qitish asosida fanlararo integratsiyani amalga oshirishga oid uslubiy asoslar, metodik yondoshuvlar va amaliy mexanizmlar ishlab chiqilganligi, kimyo ta'limini takomillashtirishning maqsadga muvofiq yollari va o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligin fanlararo yondoshuv asosida oshirishga oid metodik tavsiyalar ishlab shiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati umumta'lim o'rta maktablarida kimyo o'qitish jarayonin amaliyotga yo'naltirib muammoli o'qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirishning metodik imkoniyatlaridan foydalanish mazmuni ochib berilgan, kimyo va biologiya fanlararo aloqalar orqali o'qitish mexanizmlari aniqlashtirilgan, dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish yullari ishlab chiqilgan tadqiqot natijalaridan umumta'lim o'rta maktablarida kimyo fanin o'qitish metodikasın takomillashtirish, o'quv adabiyotlarning yangi avlodin yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muammoli o'qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirish orqali o'quvchilar bilim, ko'nikmalarin rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

muammoli o'qitish sharoitida kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi fanlararo aloqalarni amalga oshirish metodologiyasi "Kimyo fanining asosiy tushunchalari, qonunlari, elementlar davriy jadvali, moddalar va kimyoviy reaksiyalar" kabi mavzular orqali o'quvchilarda kimyoviy bilimlarni chuqur singdirish, tahlil qilish, tanqidiy fikrlash hamda umumintellektual kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan tarkibiy tizim komponentlari va ilmiy asoslari aniqlashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 7-10 sinflar uchun «kimyo va biologiya» darsligin yaratishda foydalangan. (Respublika ta'lim

markazining 2024-yil 31 iyuldagi 91 sonli dalolatnomasi). Natijada maktablarda kimyo va biologiya fanlarini fanlararo aloqalar orqali muammoli o'qitish mazmunini ilg'or tajribalar bilan boyitishga erishilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi fanlararo bog'liqlik asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini ta'minlaydigan pedagogik shart-sharoitlar, o'qitish usullari va ularning sinxron integratsiyasi negizida muammoli-integrativ klaster asosida o'qitish tizimi orqali o'quvchilarning kognitiv faolligi va divergent tafakkurini rivojlantirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan «Anorganikalik ximiya» nomli qoraqalpoq tilidagi o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 24 avgustdagi 603-sonli buyrug'i). Natijada ta'lim tizimida muammoli vaziyatlarda kimyo va biologiya fanlararo aloqalar orqali o'qitishning metodik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi fanlararo aloqalarni muammoli o'qitish asosida amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali o'quvchilarda izlanuvchanlik, maqsadga intiluvchanlik kabi faoliyat turlari innovatsion yondashuv asosida shakllantirilgan SCIENCE va STEAM ta'lim komponentlari integratsiyasi orqali kommunikativ faoliyatga yo'naltirishga va umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo va biologiya fanlari o'rtasidagi fanlararo aloqalar asosida muammoli vaziyatlarni yaratish o'quvchilarning intellektual va kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi mezonlariga doir taklif va tavsiyalardan «Ximiyani oqitish metodikasi» nomli o'quv qo'llanmasini yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 7 maydagi 149-sonli buyrug'i). Natijada kimyo o'qituvchilarining o'quvchilarni o'qitishdagi metodik tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot ishlarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ish chop etilgan. Shundan 2 ta o'quv qo'llanma, 9 ta maqola, jumladan 4 ta xalqaro, 5 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etgan jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa, taklif, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti shakllantirilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Muammoli o‘qitishda kimyo va biologiya o‘rtasidagi fanlararo aloqalarni amalga oshirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida muammoli fanlararo aloqalar orqali o‘qitishning holati va tahlili, maktabda kimyo fanini muammoli fanlararo o‘qitish tizimini yaratishning uslubiy asoslari, muammoli o‘qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritib beriladi.

Milliy ta’lim-tarbiya tizimining amaldagi holati zamon talablari asosida o‘quvchilarni hayotga tarbiyalash, ularga o‘z bilim va ko‘nikmalaridan amaliyotda foydalanishni o‘rgatish, fanlararo aloqadorlik asosida o‘quv dasturlarini yangilashning asosini tashkil qiladi. Bugungi kunda maktab o‘quvchilariga ta’lim berishda fanlararo aloqalar orqali o‘qitishni takomillashtirish borasida Jahon miqyosidagi Singapur, Finlyandiya, AQSh, Janubiy Koreya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning tajribalari asosida tizimli ishlar bajarilishi amalga oshirilmoqda. Jumladan bugungi kunda kimyo fanini fanlararo aloqalar orqali o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarin dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda hayotiy jarayonlar bilan bog‘liqliklarni ko‘rsatish, kreativligini va qiziqishlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Kimyo fanini fanlararo aloqalar orqali o‘qitishda belgilangan muammoli vaziyat kimyo fani o‘qituvchisining kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Kimyo fanini fanlararo aloqalar orqali muammoli o‘qitishda ikki tomonlama yondashiladi. Birinchi sharoitda muammoli vaziyat aniqlanadi, ikkinchi tarafdin boshqa fanlar bilan taqqoslanish orqali takomillashtiriladi.

Fanlararo aloqalar orqali muammoli o‘qitish rivojlantiruvchi ta’limni tashkil etishda ustuvor yo‘nalish sifatida g‘oya va tamoyillar uslubiy jihatdan o‘rganiladi. Kimyo fanini uslubiy jihatdan tashkil etishda muammoli vaziyatlar fanlararo aloqalar bilan uzviy bog‘liqlikda bir-birini mukamallashtirishga asos bo‘ladi. Bugungi kunda ta’lim tizimida fanlararo aloqalar orqali o‘qitish dolzarb bo‘lgan muammolarni hal etishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu zamonaviy kimyo ta’limining kasbiy sohada fundamental asosining faolligini, uslubiy ta’minotini rivojlantiradi. Sharqda fanlararo aloqalar bo‘yicha rivojlanishlar VIII-XII va XIV-XVI asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda yashab ilmiy izlanishlar olib borgan Muso Al’-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi qomusiy olimlar mehnatlarini misol keltirish mumkin. Ular tomonidan fanlararo aloqalar bo‘yicha metodologik, falsafiy, pedagogik, psixologik asoslari ishlab chiqilgan. Abu Rayxon Beruniy insonni, olamni anglashi, borliq haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishida tarix, falsafa kabi fanlarning o‘rni va fanlararo aloqalarni ahamiyati haqida o‘z asarlarida ma’lumotlar keltirgan.

Respublikamizda professor E.O. Turdukulovning ilmiy tadqiqot ishida ekologiya bilan fizika fanlari orasidagi fanlararo bog‘liqlikni, ta’lim integratsiyasining yuqori darajasi ko‘rsatkichi, bir butunlikdagi bilimlar yaratilishi uchun vosita ekanligi tahlil qilingan. Pedagogika fanlari doktori M. Nishonboeva tomonidan esa «Biologiya darslarida ekologik tarbiya» nomli o‘quv qo‘llanmasida biologiya darslarida fizika, kimyo fanlari bilan chuqur o‘zlashtirishga tegishli tushunchalar keltirilgan. Bunda muallif tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarning

yaxlitligi o`rganilgan bo`lib fanlarning o`zaro aloqadorligi o`quvchilarning umumlashgan ilmiy tushunchalarini, dunyoqarashini rivojlantirishga zamin yaratadi.


Mustaqil davlatlar hamdo`stligi olimlaridan M.I. Maxmutov, I.P. Yakovlev, G.I. Baturina, O`zbekistonlik pedagog-metodist olimlardan N.N. Azizxo`jaev, N.X. Avliyoxulov, E. G`oziev, A. Choriev, Z. Ismailova, Sh. Shomurotovalarning ilmiy mehnatlarida fanlararo aloqadorlikni rivojlantirish masalalari o`z ifodasini topgan.

Bugungi kunda ta`lim tizimining texnologiyalashuvi muammoli fanlararo aloqalar asosida o`qituvchi va o`quvchi tayyorgarligin moslashuvchan tizim sifatida o`rganishni talab qiladi. Shuning uchun biz tadqiqotimizda kimyo va biologiya fanlararo tizimli yondashuvlarni kiritganmiz. Fanlararo aloqalar orqali tizimli yondashuv tadqiqot predmetini yaxlit shaklda va tarkibiy elementlari sifatida o`rganishga imkon beradi. I.D. Zverev fanlararo aloqalarda tizim tushunchasini didaktik tamoyil, fanlararo bog`lanishlar esa tamoyilning jihatlari deb tushuntirsa, E.E. Minchenkov o`quv dasturlari, darsliklar va usullarning o`zaro muvofiqligi fanlararo aloqolarning funksional xususiyatlarini ochib beradi degan tushuntirishlarni keltirgan. Demak, mualliflarni ilmiy tadqiqot natijalaridan ko`zatiladiki fanlararo aloqalar pedagogik va didaktik tamoyillar asosida uzviy va yaxlit tizimlar orqali foydalanish imkonini yaratadi.

Tatarstan akademigi M.I. Maxmutov muammoli darslarni tashkil etish uchun o`quv materialining mazmuni, o`qitishning usul va metodlarini tanlashda loyihalashtirish uchun dars jarayonida o`quvchilarning aqliy rivojlanishiga tegishli metodlarni aniqlash; o`quvchilar izlanish faoliyatida tizimlilikka amal qilish; tizimli nazorat bilimlarini o`zlashtirish orqali o`quv materiallarini tahlil qilish va natijalarini asoslash kabi aniq qoida va talablarni ishlab chiqqan.

Har qanday ta`lim tizimini jumladan uslubiy, ijtimoiy, falsafiy, psixologik, pedagogik fan jihatlarini o`zida mujassam etganligi bilan izohlanadi. Shuning uchun ko`p bosqichli metodologiyani qo`llash balkim ta`lim tizimini murakkab, ochiq va dinamik rivojlantirishning yetakchi paradigmalari, tendentsiyalari doirasi o`qituvchilar darsning fundamental muammolarini har tomonlama ko`rib chiqilishi zarurdir. Bunday sharoitda maktablarda kimyo fanini o`qitishda innovatsion g`oyalar manba sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Dars jarayonida ishlab chiqilgan tizim o`qituvchilarning metodik tayyorgarligi, amaliyotga joriy etilishi lozim bo`lgan o`zgarishlarni shuningdek, ta`lim tizimidagi tadqiqot qoidalarini amalga oshirish istiqbollari oldindan belgilashga imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib tadqiqot samaradorligi to`g`ridan-to`g`ri uning ko`p bosqichli metodologiyasining aniq asoslanishiga bog`liq. Ilmiy tadqiqot ishimizda Qoraqalpog`iston maktablarida kimyo fanini muammoli fanlararo aloqalar orqali o`qitish tizimi to`rt turli darajadagi uslubiy asoslarini o`z ishiga oladi (1-rasmga qarang).



1 rasm. Fanlararo muammoli o‘qitishning uslubiy asoslari

Fanlararo aloqalar ta’lim jarayonida ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy, ekologik kabi omillarni hisobga olish kerakligi bilan izohlanadi. Fanlararo aloqalar orqali muammoli yondashuv kimyo o‘qituvchisining uslubiy tayyorgarligi tahlili hisoblanib bir butun tizim sifatida amalga oshiriladi. Biz nomlagan barcha yondashuvlar bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarda kreativligini rivojlantirishga qaratilgan. Muammoli vaziyat deganimizda o‘qituvchi va o‘quvchining darsda o‘ziga ma’lum usullar bilan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erisha olmagan vaziyatda kuzatiladigan intellektual o‘rganuvchanlik holati tushuniladi. Natijada o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalari takomillashtiriladi shuning bilan birga fanlararo aloqalar orqali izlanishga undaydi. O‘qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish orqali muammoli vaziyatlar yechimi aniqlanadi. Shuning bilan birga muammoli vaziyat dars jarayonida ta’lim muammosi sifatida amalga oshirilishi zarur.

Biz nomlagan yondashuvlarda o‘qituvchi kreativligin tashkil etishga qaratilgan bo‘lib ayrim muammoli vaziyatlarni boshqaruvda murakkablikni hosil qiladi. Bunday o‘qitishdagi murakkabliklarni bugungi kunda axborot texnologiyalari asosida bartaraf etish mumkin. Biz o‘qituvchining uslubiy tayyorgarligi o‘quvchilar muammolarin aniqlash va hal qilish orqali kreativligi belgilanadi. Uslubiy jarayonlarda har doim aniq tashkil etilgan samarali reproduktiv tayyorgarlik faoliyati shakllanib boradi.

Dissertatsiyaning «**Muammoli o‘qitishda kimyo va biologiyani fanlararo aloqalar orqali o‘qitish metodologiyasining metodik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida maktabda muammoli o‘qitishda kimyo va biologiya fanlararao aloqalarni amalga oshirishning uslubiy asoslari, muammoli o‘qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirish mexanizmlari, muammoli o‘qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirish metodikasi yoritib beriladi.


Bugungi kunda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifatini ilm-fan natijaligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan

biri hisoblanadi. Kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini rivojlantirish maktablarda ushbu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish ta'lim muassasalarini zamonaviy laboratoriya, darsliklar bilan ta'minlash va oqitish tizimiga malakali o'qituvchilarni jalb qilish orqali o'quvchilarning bilim olishidagi yangicha yondoshuv hisoblanadi.

Fanlararo aloqalar orqali darsda muammoli vaziyatlarni shakllantirish bilim olishdagi mazmunan tarkibiy, ilmiy, tashkiliy, uslubiy jihatlarga erishish birligini ta'minlaydi. Muammoli o'qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalari orqali shakllangan bilimlar o'quvchilarning intellektual kognitiv bilish faolligini, divergent tafakkurini, ijodkorligini rivojlantirish uchun asos yaratadi va o'quv jarayonida izlanuvchanlik, maqsadga intiluvchanlikni keltirib chiqaradi. Maktabda muammoli o'qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirishning uslubiy asoslari deganimizda maqsadni, qadriyat yo'nalishlari birligini, bog'liqligini, didaktik ta'lim natijalarini, bilim olish mazmunini, ta'lim komponentlari integratsiyasi tushuniladi.


O'quvchilar bilim olishida bunday vaziyatlarni yaratish o'qituvchilarning metodik tayyorgarligida muammoli vaziyatlarni tashkillashtirish va to'g'ri echimini aniqlay olishi fanlararo aloqalarni amalga oshirishdagi muhim sharti hisoblanadi. Natijada fanlararo aloqalarni amalga oshirishning tarkibiy tizimi shakllanadi. Tarkibiy tizim quyidagi komponentlardan tashkil topgan (2-rasmga qarang).

Muammoli o'qitishda fanlararo aloqalarning uslubiy asoslari taqdim etiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qiladi. Bunda maqsad mavzuda kutilayotgan natija fanlararo aloqalar orqali muammoli vaziyat bilimlarini sintez qilish orqali o'quvchilarda ko'nikmalarni o'zlashtirishga undaydi. Buning asosida o'quvchilarning intellektual qobiliyati aniqlanadi, ijodiy salohiyati rag'batlantiriladi, o'z-o'zini rivojlantirish, nazorat qilish ko'nikmalari takomillashtiriladi.



2 - rasm. Tarkibiy tizim komponentlari


Maktabda kimyo fani o'qituvchisini pedagogik faolyatidan kelib chiqib muammoli holatlarda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarin tashkillashtirish mezonlarini ishlab chiqildi(3-rasmga qarang).



3 - rasm. Muammoli holatlarda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarin tashkillashtirish mezonlari

Tadqiqot ishimizda muammoli o'qitishda fanlararo aloqalar orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun mantiqiy-evristik usullarni o'rganildi. Bunda mantiqiy-evristik usulda o'quvchilarda kimyo va biologiya fanlarararo aloqalar orqali muammoli vaziyatlar echimini topishda kommunikativlik shakllantirildi. Mantiqiy evristik usulda o'quvchilar bilan birgalikda muammoli vaziyatning elementlarni, ma'lumotlarni echish usullari, echimini tahlil qilish va taqqoslash orqali kimyo va biologiya fanlaridagi aloqalarni o'rganildi. Mantiqiy-evristik usulda muammoli vaziyatni aniqlash uchun aqliy hujum va o'quvchilarda fikrlashni rivojlantirish uchun sinektik metodlardan foydalanildi.

Shunday qilib muammoli o'qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish natijalarini hisobga olgan holda darsda o'quv-uslubiy vaziyatlarni shakllantirish va echimini topish bosqichlari ishlab chiqildi(4-rasmga qarang):



4-rasm. O'quv-uslubiy vaziyatlarni shakllantirish va echimini topish bosqichlari

Tadqiqot davomida muammoli o'qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirish tizimini sinxron, asinxron bo'g'lanishlar orqali o'rganildi. Sinxron bo'g'lanishlar fanlararo aloqalar orqali uslubiy bog'liqlikni, o'qitish mazmunini ichki tizimlashtirishni ta'minlaydi. Buning uchun didaktik birliklarni, tarkibni integrallash, fundamentallashtirish mexanizmlari, vositalari sifatida fanlararo aloqalarni kompleks sifatida foydalanildi.

Mavzulardan kelib chiqib muammoli o'qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirishning to'yingan, tajriba, tasniflash, modellashtirish usullarini ishlab chiqildi.

To'yingan usulida maktabda o'qitiladigan fan mavzularidan kelib chiqib muammoli vaziyatlar o'rganildi. 8-sinfda biologiya darslarida to'yingan usulidan foydalangan holda inson organizmini tartibga solish, qon guruhlari, immunitet tizimi, nerv tizimi, temperamentlar, kimyo mavzularida moddalarning tuzilishi, noorganik moddalarning sinflanishi mavzulari bo'yicha fanlararo bog'lanishlar orqali muammoli vaziyatlar o'rganildi.

Modellashtirish usulida kimyo va biologiya fanlararo aloqalar orqali maktab o'quvchilari atom va molekularlar, elektroliz, inson organizmi faoliyati, ekotizimlar, hujayralar, oqsillar, DNK organik molekularlarning biosintezi mavzularini o'rganib muammoli vaziyatlar tahlil qilindi. Tahlil qilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki maktab o'quvchilariga muammoli savollar orqali kimyo va biologiya fanlarini o'rganish uchun maktab darsliklarida keng imkoniyatlar mavjud.

Kimyo va biologiya fanlararo aloqalar orqali muammoli vaziyatlarni amalga oshirish metodikasini yaratishda umumiy uslubiy tushunchalar va universal o'qitish usullari qo'llanildi. Uslubiy tushunchalar orqali kimyo va biologiya fanlararo mavzular asosida «deminga», «sinektika», «kingise», «mental xarita», metodlaridan foydalanildi. Bunda fanlararo muammoli savollar orqali metodik tizimga birlashtirildi, shuningdek, dars oxirida kesa ish uchun yordam vazifasini o'taydigan mental xaritalar ishlab chiqildi. "Deming" metodi orqali kimyo fani real hayotiy holatlar bilan integratsiyalashuvi va o'quvchilarning ilmiy fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati, fanlararo aloqalarni anglash kompetensiyalari takomillashtirildi.

Dissertatsiyaning «**Muammoli o'qitishda kimyo va biologiya o'rtasidagi fanlararo aloqalar orqali o'qitish samaradorligi va tajriba - sinov natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida muammoli o'qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish samaradorligi bo'yicha tajriba - sinov ishlarining tashkil qilinishi va samaradorligi bo'yicha tajriba - sinov natijalari aniqlandi.

Ilmiy tadqiqot ishimizda biz nazariy tadqiqotlar natijasi tahlili sifatida amaliy tadqiqotlar ham o'tkazganmiz. Amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etishda muammoli o'qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalarni amalga oshirishni takomillashtirishning metodik va nazariy asoslariga tayandik. Eksperimental tadqiqot ishin biz 2019-2023 yillar oralig'ida amalga oshirganmiz.

Ilmiy tadqiqot ishimizda eksperimental tajribalarni o'tkazishda Qoraqalpog'iston Respublikasi maktablarida muammoli o'qitishda kimyo va biologiya fanlararo aloqalari orqali o'qitish holatini o'rganganmiz va tahlil qilganmiz. Tajriba sinov ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri

№3, 28, 9, Chimboy tumani №15, 22, Mo‘ynoq tumani №16,7,18, Xo‘jayli tumani №16,19,32, Qo‘ng‘irot tumani №22-, Amudaryo tumani №7, Bo‘zatov tumani №2, 10, Nukus tumani №6, 21,31, To‘rtgul tumani №1, 30-sonli maktablardan 11 nafar o‘qituvchi va 352 nafar o‘quvchilar tajriba va nazorat guruhlari uchun tanlab olindi. Tajriba sinov ishlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablaridan kimyo, biologiya, geografiya, fizika, matematika fanlari o‘qituvchilari va 8-9-10-11-sinf o‘quvchilari jalb qilingan. Tajriba sinov ishlarin tashkil etishda ilmiy tadqiqot ishimizning tahlil natijalaridan kelib chiqib maqsad, vazifalar, bosqichlar va asosiy yo‘nalishlar belgilab olganmiz.

Tajriba sinov ishlarin o‘tkazishdan maqsad ilmiy yangiliklarning to‘g‘riligin eksperimental yo‘l bilan isbotlash, yaratilgan o‘quv qo‘llanmalar asosida maktab o‘qituvchilarini kimyo fanin fanlararo aloqalar orqali o‘qitish metodikasi samaradorligin aniqlashdan iborat.

Ta’kidlangan maqsadga erishish uchun kuyidagi muammolarni hal qilish zarur: Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablarida kimyo fanin o‘qitishni takomillashtirish holati; Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablarida kimyo fanin fanlararo aloqalar orqali o‘qitish samaradorligi, o‘quvchilarning bilim olishi takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan metodik tizimning maqsadga muvofiqligi; maktabda o‘qituvchilarning kimyo fanin muammoli o‘qitishda fanlararo aloqalardan foydalanish usul va metodikalari. Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda pedagogik tajriba sinov ishlarin tashkil etish tuzilmasin belgilab olganmiz. Mantiqiy va tizimlik asosdan kelib chiqib tajriba sinov ishlarin bosqichli tashkil etganmiz.

Birinchi bosqich shakllantiruvchi tadqiqot hisoblanib Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablarida kimyo fani muammolarin o‘rganish diagnostik tahlil deb nomlaganmiz. Tajriba sinov ishlarin diagnostik tahlil qilib o‘rganishni 2019-2020 yillar oralig‘ida o‘tkazganmiz. Birinchi bosqich diagnostik tajriba sinov ishlarini asosiy bazasin Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tashkil etadi, sababi biz eksperimental ishlarni o‘quv qo‘llanma yaratish maqsadida 2019 yildan oldingi davrlardan boshlab o‘rganganmiz. O‘quv qo‘llanmalarni yaratish uchun biz anorganik kimyo va kimyo o‘qitish metodikasi fanlari asosida maktab darslarin tahlil qilganmiz. Tahlil natijalarin biz o‘quv qo‘llanma mavzulari asosida yoritib berganmiz. Diagnostik tahlil tajriba sinov ishlarining murakkabligi shundaki ishlab chiqilgan metodik tizim o‘quvchilar va o‘qituvchilarni kreativ rivojlantirish ta’siri zaruriyatidan ifodalangan. Shuning uchun diagnostik tahlil tajriba sinov ishining eng muhim vazifasi mezon, ko‘rsatkichlarni aniqlash, sifat va miqdoriy tahlil usullarin to‘g‘ri tanlashdan iborat hisoblanadi. Biz diagnostik tahlil tajriba sinov bosqichida ushbu muammolarni o‘rganib chiqqanmiz.

